XALQ DEPUTATLARI SHIRIN SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 21-iyun VI-72-108-9-131-K/24 Shirin shahar

Shirin shahrida toponomik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida

Kun tartibidagi masala deputatlar tomonidan atroflicha muhokama qilinib hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari shahar kengashi **qaror qiladi:**

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024-yil 23-apreldagi 03/08-3840-sonli yig‘ilish bayoni qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shirin shahar mahallalari hududidagi nomlanmagan ayrim ko‘chalarni nomlash to‘g‘risidagi takliflari asosida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024-yil 23-apreldagi 03/08-3840-sonli yig‘ilish bayoni qarori bilan taklif etilgan ko‘chalar ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Shirin shahar hokimi o‘rinbosari (D.Azimov), Shahar IIB boshlig‘i (B.Sanayev), shahar adliya bo‘limi (I.Xakimov), shahar Statistika bo‘limi (N.Narkuziyeva), shahar Davlat soliq inspeksiyasi (D.Inatova), Davlat xizmatlari markazi (A.Rahmatov), O‘zbekiston mahallalar uyushmasi shahar bo‘limi (N.Usmonova), Davlat kadastlar palatasi Shirin shahar bo‘limi (J.Ergashev) va tegishli mutasaddi tashkilotlarga:

- mazkur qaror ilovasi asosida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar e’tiborga olinsin va mazkur qarordan kelib chiqqan holda tegishli idoraviy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Shahar hokimi o‘rinbosari (D.Azimov), O‘zbekiston mahallalar uyushmasi shahar bo‘limi (N.Usmonova)larga:

- 15 kun muddatda hududlardagi nomlari o‘zgargan ko‘chalarga zamonaviy ko‘rinishdagi (lotin yozuvida homiy tashkilotlar yordamida) peshlavhalar yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etish;

- peshlavhalar o‘rnatish va moliyalashtirish yuzasidan tegishli tashkilotlarga ko‘rsatmalar berish va nazoratga olish vazifalari yuklansin;

- bir hafta muddatda hududlarda yangi nomlangan ko‘chalarning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilansin.

5. Shahar ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (B.Sanayev)ga:

- Shahar mahallalari hududidagi yangi nomlangan ko‘chalarda yashovchi fuqarolarga yangi passport berish va ularni ro‘yxatga qo‘yishda yangi nomlar bilan yozilishini nazoratga olish vazifasi yuklatilsin.

6. Shahar hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (K.Azimjonov) :

- hududdagi yangi nomlangan ko‘chalarning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda va hokimlikning veb-saytiga ma’lumotlar bersin.

7. “Shirin sadosi” gazetasi tahririyati (O.Ashurqulov)ga ushbu qarorni “ Shirin sadosi” gazetasida yoritish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining barcha doimiy komissiyalari zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi XAZRATKULOV NIYOZ NAMAZBAYEVICH

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2024-yil 21-iyundagi
VI-72-108-9-131-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Shirin shahar mahalla hududidagi nomlanmagan ayrim ko‘chalar
RO‘YXATI

T/r	Mahalla nomi	Ko‘chalarning hozirgi nomlanishi	Ko‘chalarni qayta nomlash bo‘yicha taklif etilgan nomlar	Tanlangan nom
1	Farhod mahallasi	Nomsiz berk	Tanlangan nom asosida	Diyonat berk-2
2	Farhod mahallasi	Nomsiz tor	Tanlangan nom asosida	Namuna tor